

“DEVONI LUG‘OTIT TURK”DAGI HARAKATNING HOLATI FE‘LLARI

Shoira Eshboyeva

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 3-kurs

eshboevashoira@gmail.com +998900084407

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk”dagi harakatning holati fe‘llaridan ayrimlari tahlilga tortildi. Hamda ushbu so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosini kengroq yoritish va turli davrlarda qay holatda qo‘llanilganligi, ma‘no taraqqiyotida qanday o‘zgarishlar yuz berganligini aniqlash maqsadida “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yordamida qiyosiy o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, fe‘l, holat fe‘llari, harakat fe‘llari, ob‘ekt, sub‘ekt.

Abstract

In this article, some of the verbs of the state of action in the "Devoni lug'otit turk" were analyzed. And in order to clarify the dictionary meaning of these words in a wider way and to determine in what situations they were used in different periods, what changes occurred in the development of the meaning, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” and “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” was studied comparatively.

Keywords: vocabulary, verbs, state verbs, action verbs, object, subject.

O‘zbek tilidagi holat fe‘llari ob‘ektiv asosiga ko‘ra tabiat va jamiyatagi, o‘simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog‘liq muayyan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Demak, holat fe‘llari moddiy asosiga (ob‘ektiga) ko‘ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o‘ziga “joylashtirishi” bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe‘l leksemalardan ajralib turadi. Holat fe‘llari ma‘nosida reallashuvchi holat muayyan logik sub‘ekt doirasidagina sodir bo‘lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat fe‘llari holat ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo‘ladi¹.

Harakatning holati fe‘llarida holat harakatning doimiy belgisi, uning mavjudligi, “yashash” usuli, ammo tugallanmagan, davomli belgisi bo‘lib ko‘rinadi. Chunki holatning yo‘qolishi harakatning tugashi bilan yuz beradi, ya‘ni harakat holatning manbai, asosi sifatida mavjud bo‘ladi. Boshqacha aytganda, logik sub‘ekt holati harakat bilan birgalikda, bir butun ajralmas

¹ Rasulov R. O‘zbek tilida holat fe‘llari va ularning obligator valiantliklari. Toshkent 1989. — B 19.

holda muayyan predmetni xarakterlovchi muhim belgi—xususiyat bo‘lib kuzatiladi². Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” asarida “yonishdan, yolqin berishdan to‘xtamoq, so‘nmoq” ma’nosini **öчур-** fe’li ifodalaydi: Анің өпкәсін өчурді – uning g‘azabini pasaytirdi (DLT,I,186). Alisher Navoiy asarlarida mazkur leksemaning quyidagi ma’nolarini uchratamiz:

1. So‘nmoq, o‘chmoq. Va Ya’qub alayhissalomni muhlik motamg‘a va o‘chmas o‘tqa soldilar.

2. O‘chmoq(uyqu).

El tilidin uyqu o‘chmishtur ko‘zimdin go‘yiyo,

Kim erur baxt uyqusining boisi afsonamiz (ANATIL,III,619). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘rganilayotgan so‘zning shakli saqlanib qolgan va quyidagi ma’nolari kuzatiladi:

1. Yonishdan, yolqin berishdan to‘xtamoq, so‘nmoq. O‘tni kovlasang — o‘chadi, Ko‘shningni kovlasang — ko‘chadi.

2. Asl tusini yo‘qotmoq, xiralashmoq, o‘ngmoq. Chitning rangi o‘chibdi.

3. Ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq, ko‘rinmay qolmoq, yo‘qolmoq. Gullar, yashilliklar orasida uning adil — kelishgan qomati, shaffof bir xayol kabi goh yalt etib ko‘rinar, goh o‘char edi.

4. (Ko‘chma) Yo‘q bo‘lmoq, yo‘qolmoq. Uysusi o‘chmoq. Tarixdan nomi o‘chmoq. Sahroning nomi o‘char, O‘zgaradi qumloqlar.

5. To‘xtamoq, tinmoq, eshitilmay qolmoq. Hozirgina so‘zlashib o‘tirgan Kumush bilan onasining tovushlari o‘chgan edi.

6. (Ko‘chma) Xotiradan ko‘tarilmoq, esdan chiqmoq, unutilmoq. Nomi o‘chib ketgan Boqi mirzo ko‘p vaqt o‘tmay «inobatlik mirzo» nomi bilan bosh ko‘tardi.

7. Safdan yoki hisobdan chiqmoq. Yozuvchilar uyushmasi a’zolidan o‘chgan kishi (O‘TIL,V,208).

Mahmud Koshg‘ariy “vazni, og‘irligi oshmoq, og‘irroq bo‘lib qolmoq, og‘ir tortmoq” ma’nosini ifodalash uchun **ағур-** fe’lidan foydalangan: ағруді нәң – narsa og‘ir bo‘ldi. İklik ағруді – kasal og‘irlashdi. Ағур, ағурмақ (DLT, I,186). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ushbu so‘zning **оғир-** fonetik shakli qo‘lanilib, turli ma’nolarni bildirgan:

1.Vazni, og‘irligi oshmoq, og‘irroq bo‘lib qolmoq, og‘ir tortmoq. Yog‘och bo‘kib, ancha og‘irlashdi.

2. (Ko‘chma) Tobora mashaqqatli bo‘lmoq. Botiraling xayoli uning yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushdi va bu yuk kundan kun og‘irlashdi.

3. Qiyinlashmoq, murakkablashmoq. Ish og‘irlashdi.

4. Og‘ir tortmoq, mushkullashmoq. Bemorning nafas olishi og‘irlashdi.

5. Moddiy jihatdan nochor holga tushib qolmoq, mashaqqatli, uqubatli bo‘lib qolmoq. Ayam o‘lgandan keyin ahvolimiz yana og‘irlashdi.

² Rasulov R. Yuqoridagi manba. — B 24.

6. Noqulay, qiyin bo‘lib qolmoq. Endi qizining oldiga kirib, uning betiga qarash unga [qutidorga] juda ham og‘irlashgan edi, chunki bu fojining bosh omili deb o‘zini tanigan edi.

7. Xavfli tus olmoq, xavfli, xatarli bo‘lib qolmoq, jiddiylashmoq. Ahvol borgan sari og‘irlashdi. - Boylarning chaqirig‘i bilan Io‘lchining ishi og‘irlashdi, - dedi Shokir ota.

8. Kuchaymoq, zo‘raymoq, tuzalishi mahol bo‘lib qolmoq. Bemor kundan kunga og‘irlashyapti.

9. Oshmoq, kuchaymoq. Jinoyati og‘irlashdi.

10. (Ko‘chma) Gangib qolmoq, o‘zini yomon his etmoq. Kishi dardini anglatolmasa og‘irlashadi (O‘TIL,III,210).

“Devoni lug‘otit turk”da “bo‘shashmoq, zaiflashmoq” ma’nosida **көwil**– leksemasi qo‘llanilgan: **эp күчи көwilди** – odamning quvvati zaiflashdi. She’rda shunday kelgan:

Тэгрә awib ogrpälim

Аттін түшүб jьгрälim

Арсланлажу көкрälim

Күчи анің көwilсүн.

Yon atrofini o‘raylik, otdan tushib qattiq hamla qilaylik, arslonlarcha bo‘kiraylik, dushman kuchi shundan bo‘shashsin (DLT,II,159). Bu so‘z o‘sha davridayoq iste’moldan chiqqan va hozirgi kunda uning o‘rniga bir qancha leksemalardan foydalanamiz:

1. Bo‘shamoq. Kuzda bolalar dala ishlaridan bo‘shashsa, maktabni ochib yuborish niyatida edi.

2. Yumshoq bo‘lib qolmoq, yumsharmoq. Yer yetilib, ancha bo‘shashib qolibdi.

3. Tarangligini yoki mustahkamligini yo‘qotmoq, solqilanib qolmoq. Stullarning oyoqlari bo‘shashib qolibdi.

4. Kuchi kesilib, pasaymoq, qaytmoq. Shamol bo‘shashdi.

5. Madori qurimoq, jismonan zaiflashmoq,shalpaymoq. Adolat bo‘shashdi. Indamay, holsizlik bilan stulga o‘tirdi.

6. (Ko‘chma) Hovuridan tushmoq, gapidan, niyatidan qaytmoq, bo‘sh kela boshlamoq, hafsalasi pir bo‘lmoq. Oftob oyim erining keyingi so‘zi bilan anchagina bo‘shashdi.

7. Bo‘sh qo‘yilganligi natijasida susayib ketmoq. Intizom bo‘shashmasin (O‘TIL,I,530).

Harakatning holatini ifodalovchi fe‘l hisoblanuvchi “sustlashmoq, zaiflashmoq” ma’nosida Mahmud Koshg‘ariy **бәртін**- so‘zidan foydalangan: **элик бәртінди** – qo‘l to‘qinishdan yoki bosilib qolganidan zarbaga uchradi. Unda zaiflik paydo bo‘ldi, putur yetdi. **Бәртінүp, бәртінмәк** (DLT,II,276). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu so‘z umuman qo‘llanilmaydi va uning o‘rnida “susaymoq, pasaymoq” so‘zlari faol ishlatilib kelinyapti:

1. Sust bo‘lib qolmoq, sekinlamoq, pasaymoq, susaymoq. Sultonali bir oz sustlanib, o‘zidan o‘n ot odimi yiroqqa borgan tunqotarni chaqirib to‘xtatdi.

2. Tobora susayib, sekinlashmok, pasaymoq. Ish sustlashdi.

3. Bo'shshmoq. [U] Intizomning sustlashib ketayotganini, bunga ba'zi komandirlarning o'zlari ibrat ko'rsatayotganlarini so'zladi (O'TIL, III, 676). Sustlashmoq leksemasi bilan bir xil sememaga ega bo'lgan, lekin fonetik o'zgarish natijasida shakliy jihatdan farq qiluvchi "susaymoq" fe'li ham keltirilgan bo'lib, devonda bu so'z **күфшаш**- shaklida ko'zga tashlanadi: кишиләр камуф күфшашди – odamlar o'zlarini o'rab olgan issiqdan va boshqa shu kabi hollardan susayishdi, bo'shshishdi. Күфшашур, күфшашмак (DLT, II, 405). Bu fe'lning **күјфән**- shakli ham keltirilgan: эр ішқа күјфәнді – odam ishda sustlik ko'rsatdi, sustlandi, berilmadi. Күјфәнүр, күјфәнмәк. Bu so'zning күјфәнді tarzida harfi almashtirilgan shakli ham bor (DLT, III, 214). Alisher Navoiy esa "susayish, bo'shshish, kuchsizlanish" ma'nosida **sustaymog'** leksemasidan foydalanadi:

Bu yo'l qatidin toymog'ing nedi,

Ko'rub "Xamsa" sustaymog'ing nedi (ANATIL, III, 132). "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa bu so'zlarning birortasi ham uchramaydi, ya'ni **күфшаш**- leksemasi ham **күјфән**- leksemasi o'z davridayoq iste'moldan chiqqan. Navoiyning asarlarida bu ma'noni anglatish uchun **sustaymog'** so'zidan foydalaniladi va bu leksema ham hozirgi kunga kelib fonetik o'zgarishga uchragan va "susaymoq" ko'inishida berilgan:

1. Susaymoq. Sur'atning susayishi.

2. Keyinga ketish, tanazzul.

3. Ilgarigi kuchini, shiddatini yo'qotmoq, sekinlashmoq, pasaymoq. Nusratbekning tashidagi titroq bir oz susaydi, sekin, vazmin, salmoq bilan odimlab ketdi.

4. Shashtidan qaytmoq, ilgarigi g'ayratini, jo'shqinligini yoki qiziqishini yo'qotmoq, bo'shshmoq, pusmoq. [Kumush] Kundan kunga Zaynabning susayib, o'ziga begonalashib borganini yaxshi anglar edi.

5. Kuchini, ta'sirini yo'qotmoq, kuchsizlanmoq. U [Hakimboyvachcha] yurtdagi tinchsizlikning sababini dinning susayganidan, ulamolarning xalqqa rahbarlik qilmaganidan ko'rdi.

6. Bo'sh qo'yilganlik natijasida orqaga ketmoq, yomonlashmoq, pasaymoq, bo'shshmoq. Intizom susaydi (O'TIL, III, 675). "Devoni lug'otit turk"da "temir qizidi" gapi **тәмүр ісіді**- deb berilgan va har qanday narsaning qizishiga **ісір**, **ісімәк** fe'llari ishlatilgan (DLT, III, 270). Hozirgi kunda bu ma'noni ifodalovchi leksemalar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanadi:

1. Harorati ko'tarilmoq, baland bo'lmoq, isimoq(asosan havo harorati haqida). Havo nihoyatda qizigan, otlar halloslab terlar.

2. Biror narsa(olov va b.) ta'sirida tana harorati oshmoq, ko'tarilmoq (jism, tana haqida). Badani qizidi. Tandir qizidi.

3. Qizishmoq. [Sodiq:] Qizib ketgan ekanman, qarang.

4. (Ko'chma) Qizg'in tus olmoq. Suhbat qizidi(O'TIL, V, 309).

Mahmud Koshg'ariy "ko'paymoq oshmoq" ma'nolarini **тэриңүклән-** fe'li orqali ifodalaydi: суw тэриңүкләнди – сув чуқurlashди, ko'payди. Тэриңүкләнүр, тэриңүкләнмәк (DLT,III,418). Bu so'z ham hozirda qo'llanilmaydi va **тэриңүклән-** leksemasining ma'nosini anglatadigan "oshmoq, ortmoq" so'zlarini uchratishimiz mumkin, ularning ma'nolari quyidagicha:

1. Son, miqdor jihatdan ortmoq, oshmoq. Daromad ko'paydi. Chorva mollarining soni ko'paydi.

2. O'zidan ko'p nasl qoldirmoq, urchimoq (O'TIL,II,259).

Devonda "shoshilmoq" fe'li sinonim bo'lib kelgan. Bir o'rinda shu ma'noni ifodalovchi **ашуқ-** fe'lini uchratsak, yana bir o'rinda **эwиш-** fe'li ko'rishimiz mumkin: ол эwгә ашукті – u uyga yoki boshqa joyga shoshildi. Har bir narsaga chanqoq, mushtoq kishiga ham bu so'z qo'llanadi. Ашукар, ашукмақ (DLT,I,199). эwишди – shoshilishdi. Misol: кимиләр ишқа эwишди – kishilar ishga shoshilishdi. Эwишүр,эwишмәк (DLT,I,194). Ayni paytda "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham **ашуқ-** so'zini "oshiqmoq" shaklida uchratamiz, ammo **эwиш-** fe'li esa o'sha davridayoq iste'moldan chiqqan. Hozirda "shoshilmoq" so'zi quyidagi ma'nolarda keladi:

1. Erishish, yetish va sh.k. ga sabrsiz intilmoq, oshiqmoq. Avaz Yoshulli bilan ochilib gaplasholmadi, raisning nega shoshayotganiga ham tushunmadi.

2. Tez, zudlik bilan bajarmoq, tez, ildamlik bilan harakat qilmoq. Odamlarning shoshib yurishiga qaraganda, qormi, yomg'irni yog'sa kerak.

3. To'satdan yuz bergan ish, hodisa tufayli hovliqmoq, hayajonlanmoq, esankiramoq. To'satdan mehmonlar kelib, shoshib qoldim (O'TIL,IV,675).

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davrlar o'tishi bilan leksema sememasi kengayib boradi. XI asrda bir so'z bir yoki ikki ma'noni anglatgan bo'lsa, Navoiyning davriga kelib bu so'zlarni yanada kengroq o'rinlarda ishlatishgan. Ba'zi so'zlar: **ашуқ-**, **өчүр-** so'z shakllari hozir ham saqlanib qolgan, lekin devonda qo'llangan so'zlarning aksariyat qismi o'sha davridayoq iste'moldan chiqqan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ayrim so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham qo'llanilayotganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, yuqorida keltirilgan "qizimoq", "bo'sharmoq", "og'irlashmoq", "o'chmoq" fe'llari bunga misol bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I tom.(1983). (539-bet). Toshkent.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. II tom.(1983). (539-bet). Toshkent.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III tom.(1983). (261-532 bet). Toshkent.
4. Rasulov,R. (1989). O'zbek tilida holat fe'llari va ularning obligator valiantliklari.(24-bet).Toshkent.
5. Qoshg'ariy, M.(1960). Devoni lug'otit turk. I tom.(202-bet). Toshkent.

6.Qoshg'ariy, M.(1960). Devoni lug'otit turk. II tom.(167-141 bet). Toshkent.

7.O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom.(182-bet). (2007). Toshkent.

8.O'zbek tilining izohli lug'ati. IV tom.(228-658 bet). (2007). Toshkent.

